



METHODOLOGY OF TEACHING PHONETIC SOUNDS TO PRIMARY SCHOOL STUDENTS

Kadirova Olima Mukhammatqul qizi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.16927321>

ARTICLE INFO

Received: 16th August 2025

Accepted: 21st August 2025

Online: 22nd August 2025

KEYWORDS

Linguistic competences, word groups, syntactic elements, pictorial tasks, independent works.

ABSTRACT

In this article, the work on the formation of linguistic competences in primary-grade native language classes is theoretically and pedagogically justified. The technological approach to the process of developing the processes of working on the text among the students, innovative forms, tools and methods of its application to the educational process were discussed.

МЕТОДИКА ОБУЧЕНИЯ ФОНЕТИЧЕСКИМ ЗВУКАМ УЧЕНИКОВ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Кадирова Олима Мухамматкул кызы

<https://doi.org/10.5281/zenodo.16927321>

ARTICLE INFO

Received: 16th August 2025

Accepted: 21st August 2025

Online: 22nd August 2025

KEYWORDS

Лингвистические компетенции, группы слов, синтаксические элементы, изобразительные задания, самостоятельные работы.

ABSTRACT

В данной статье теоретически и педагогически обоснована работа по формированию языковых компетенций на уроках родного языка в начальных классах. Обсуждался технологический подход к процессу разработки процессов работы над текстом у учащихся, инновационные формы, средства и методы его применения в образовательном процессе.

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIGA FONETIK TOVUSHLARNI O'RGATISH METODIKASI

Kadirova Olima Muxammadqul qizi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.16927321>

ARTICLE INFO

Received: 16th August 2025

Accepted: 21st August 2025

Online: 22nd August 2025

KEYWORDS

ABSTRACT

Ushbu maqolada boshlang'ich sinf ona tili darslarida lingvistik kompetensiyalarni shakllantirish ustida ishlash nazariy-pedagogik jihatdan asoslab berilgan. O'quvchilarda



Lingvistik kompetensiya, so'z turkumlari, sintaktik elementlar, test, rasmi topshiriqlar, mustaqil ishlar.

matn ustida ishlash jarayonlarini rivojlantirish jarayoniga texnologik yondashuv, uni o'quv-tarbiya jarayoniga tatbiq etishning innovatsion shakl, vosita, metodlari haqida fikr yuritilgan.

Mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev "...yoshlarimiz mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz"¹ – deb alohida takidlab o'tishlaridagi bosh g'oya ham yurtimizda yosh avlodga qaratilayotgan yuksak e'tiborning asosi desak mubolag'a bo'lmaydi.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni (2020-yil)[2], ta'lim sohasida olib borilayotgan davlat siyosatida umumiy o'rta ta'lim maktablarida ta'lim sifatini oshirish, uni rivojlangan xorijiy davlatlar standart talablari darajasiga olib chiqish ustuvor vazifa etib belgilangan. Ushbu davlat hujjatlarida ta'lim jarayonini insonparvarlashtirish va demokratlashtirish, uni shaxsga – ta'lim jarayonining asosiy subyekti bo'lgan o'quvchiga yo'naltirish asosiy tamoyillar sirasiga kiritilgan. Shu munosabat bilan ta'lim tizimini isloh qilishning hozirgi bosqichida o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi munosabatlarning adekvat modelini qurish uchun o'quvchining individual-psixologik xususiyatlarini tahlil etishga yanada sinchkovlik bilan yondashish talab etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-noyabrdagi "Zamonaviy maktablarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida ushbu tizim faoliyatini yangi bosqichga ko'tarish, sohani bugungi kun talablari darajasida modernizatsiya qilishga qaratilgan.[3]

Prezidentimiz ta'lim tarbiyaga e'tibor qaratgan holda o'quv muassasalari, o'qituvchilar, o'quv vositalarini ham chetda qoldirgan yo'q, albatta. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 3-fevraldagi F-22-son farmoyishida milliy ta'lim tizimini yo'lga qo'yish, o'qituvchi kasbining obro'si va maqomini ko'tarish, umumiy o'rta ta'lim muassasalari bin ova inshootlarini qurish kabi muhim masalalar tilga olingan[4].

Biz yosh avlodga yaxshi bilim berishimiz uchun boshlang'ich sinfdayoq kuchli harakatni boshlashimiz kerak. Chunki bolalarning eslab qolish, yod olish xotirasi kuchli bo'adi. Zero dono xalqimioz aytganidek "Yoshlikda olingan bilim toshga o'yilgan naqshdir". K. D. Ushenskiy ham boshlang'ich sinflarda ona tili fanini asosiy o'ringa qo'yib, yetakchi predmet deya hisoblagan. "Ajoyib o'qituvchi bo'lgan ona tili bolaga ko'p narsani o'rgatadi... Bola ikki-uch yil ichida shunchalik ko'p narsa o'rganadiki, ko'p narsa bilib oladiki, 20 yil qunt bilan metodik jihatdan juda to'g'ri o'qiganda ham uning yarmicha o'rgana olmaydi. Ona tilining ulug' pedagogligi ham ana shundadir"[5]

¹Mirziyoyev SH.M. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent, "O'zbekiston" NMIU, 2017. – 29 b.



Lingvistik kompetensiya tilni tushunish, nutqni tushunish, matnlarni tahlil qilish, tilning qonuniy tuzilmalari to'g'risida ko'nikmalarni o'rganishni anglatadi.

Lingvistik kompetensiya unli va undosh harflar imlosini bilish va yozma nutqda to'g'ri qo'llay olish; olinma so'zlar, atamalarning talaffuzi, imlosi va ma'nolarini bilish, ularni nutqda to'g'ri qo'llay olish; lug'at va lug'at turlarini bilish, lug'atdan foydalanish qoidalariga rioya qilish; so'z, uning tarkibiy qismi, asos va qo'shimchalar imlosini bilish va nutqda to'g'ri qo'llay olish; ot, sifat, son, olmosh va fe'lni o'zaro farqlash, nutqda to'g'ri foydalana olish; so'zlarni o'zaro to'g'ri biriktirgan holda gap hosil qila olish; gaplarning ifoda maqsadiga ko'ra turlarini bilish, ular imlosiga rioya qilish; gap bo'laklarini bilish va ularni nutqda qo'llay olish; so'z, gap va matnning xususiyatlarini bilish, qoidalarga rioya qilgan holda matn yarata olish kabi tayanch mavzularni o'z ichiga oladi.

1-4-sinf ona tili darsliklarida asosan hamma mavzu o'quvchilarda lingvistik kompetensiyalarni rivojlantirish uchun berilgan.

S.D. Kuranov muallifligidagi 2-sinf ona tili 1-qism kitobida 1-mavzuda o'quvchilarga taqlid so'z turkumi haqida sodda va tushunarli ma'lumot berish bilan boshlanadi. Tillarning paydo bo'lish nazariyasida tovushga taqlid nazariyasi mavjud bo'lib, bu nazariya kishilar atrofidagi predmetlar chiqargan ovozigacha taqlid qilish natijasida dastlabki so'zlar paydo bo'lgan deb hisoblaydi. Endi gapirishni o'rganayotgan bolalar ham lug'at boyligini taqlid so'zlarni o'rganish bilan boshlaydi desam, mubolag'a qilmagan bo'laman.

2-sinf uchun ona tili 1-qism darsligida "Tovushlar va harflar" mavzusi o'quvchilarga yoritib berilayotganda tovushni quloq orqali qabul qilishimizni rasmiy ifodalalar bilan tushuntirib berilgan. Endi o'quvchi quloq orqali eshitgan hamma hodisa tovush yoki tovushlar yig'indisi ekanligini idrok qilib boshlaydi. Quloq orqali eshitalayotgan tovushga taqlid ham (bargning to'kilgandagi shitirlashi), insonlarning o'zaro suhbatidagi gaplar ham, hayvonlarning chiqaradigan ovozlari ham (g'a-g'a, vov-vov, miyov-miyov) hammasi tovush ekanligini bilib olishi lozim. Bu vazifani osonroq bajarish uchun sinfda bolalarga turli tovushlar mavjud bo'lgan (dengiz videoga olingan, bu videoda dengiz shovqini mavjud, mushuk videoda bor va mushuk miyovlayapti) videorolik qo'yib berish maqsadga muvofiq. Video bilan ham o'quvchilarga o'rgatsak, o'quvchilar ham ko'z xotirasi bilan, ham quloq xotirasi bilan eslab qoladi. Tovush haqida bolalar ongida tushuncha paydo bo'lganidan so'ng harflar haqida ma'lumot berish kerak.

O'quvchilar taqlid so'zlarni o'rganayotganda so'z turkumlarini o'zaro farqlash, nutqda to'g'ri foydalana olishni bajarib boshlaydilar.

Keying darslarda esa nutq tovushlari, harflar, unli tovushlar va harflar, undosh tovushlar va harflar, jarangli va jarangsiz undosh tovushlar, j, x va h harflarining talaffuzi va imlosi, harf birikmasi bilan ifodalanadigan undoshlar to'g'risida o'quvchilarga to'liq va ixcham shaklda ma'lumot beriladi. Og'zaki nutqda ba'zi so'zlarda tovushlar va harflar soni teng kelmasligi ham mumkin. Bu qoidaga misol qilib go'sht-go'sh, daraxt-darax, Toshkent-Toshken, Samarqand-Samarqan, bilan-blan. Bu so'zlarda og'zaki nutqda tovush tushish hodisasi bo'lsa ham yozuvda asliga muvofiq yozilishi kerakligi tushintiriladi. Shu tarzda o'quvchilarga bilimlar video tasvirlar, ovozli ma'lumotlardan foydalangan holda soddadan murakkabga tomon o'rgatilib boriladi.

S.D. Kuranov muallifligidagi 2-sinf ona tili 2-qism kitobida o'quvchilar tutuq belgisi haqida boshlang'ich bilimga ega bo'lishadi. Sher(yirtqich hayvon), she'r(qofiyaga solib yozilgan asar),



surat(chizilgan rasm), sur'at(tezlik, jadallik, shoshilish) so'zlarida tutuq belgisining qatnashish yo qatnashmasli so'zning ma'nosini farqlashga xizmat qiladi. Paronim so'zlar haqda ilk ma'lumotni boshlang'ich simfdayoq ola boshlaydi. 2-sinf o'quvchisi so'zlarning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlarini o'zaro farqlab boshlaydi. Berilgan misollar orqali nutqda to'g'ri qo'llashni o'rganadi.

Lingvistik kompetensiyada boshlang'ich sinf o'quvchisi bo'g'in ko'chirish qoidasiga rioya qila olishi lozimligi ahamiyatga ega. Aynan bo'g'in mavzusi 1-sinfda o'rgatilib boshlasa-da 2-sinfda chuqurlashtirilib, ko'plab misollar bilan beriladi. 1 unli 1 bo'g'inni tashkil qilishini, so'z boshida va so'z oxirida bo'g'in hosil qilgan yolg'iz unlilar bo'g'in hosil qilsa-da boshqa satrga ko'chirib bo'lmasligi misollar bilan yaxshi tushuntirib berilgan. Harfiy birikmalar birgalikda keyingi qatorga ko'chirilishi ham ayni bo'g'in mavzusida izohlanadi.

So'z turkumlari ham lingvistik kompetensiyalar tarkibiga kiradi. so'z turkumlariga oid ilk tushunchalar 2-sinfda berilgan. Shaxs nomi(Ibrohim, Madina, Salim), narsa nomi (qalam, daftar, kitob), shaxs-narsa harakati (yugurdi, kuldi, yozdi), shaxs-narsa belgisi(qattiq, sariq, chiroyli), shaxs-narsa sanog'I (beshta, uchta, o'nta) kabi so'zlarni borliqdagi ma'nosiga ko'ra farqlay boshlaydilar.

Lingvistik kompetensiyalarda o'rganiladigan lug'at ham 2-sinfda "So'zning ma'nolarini o'rganamiz" mavzusida boshlang'ich bilimlar bilan tushintirilgan. Qo'l, suv, darxt, olma so'zlari rasmlar orqali ko'z xotirasi bilan bola ongida so'zlarni rasmlar orqali eslab qolish ko'nikmasi shakllantirilgan. 2-sinf ona tili darsligi 12-mavzu 3-mashqda "Quyosh-sayyoramizning hayot manbai", "Neft-yer ostidan qazib olinadi" kabi misollarda lug'at, so'zning atash ma'nosi haqda ilk tushunchalarga ega bo'ladi.

Lingvistik kompetensiyada so'zlarning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlarini o'zaro farqlash va nutqda to'g'ri qo'llay olish mavzusi ham o'rin oladi. Ko'p ma'noli so'zlar haida ilk marotaba qoida asosida 2-sinf ona tili darsligida ma'lumot berilgan. "Temir" so'zi metallni ifodalashi, bundan tashqari, "temir" so'zining qattiq, mustahkam, chidamli degan ma'nolari borligi, kuchli, chidamli insonlarni "temir odam" deb atashimiz qoida tarkibida o'rgatilgan. Qozonning qulog'idan ushladim, uzukning ko'zi yaraqladi, ertakning boshi juda qiziq, kursining oyog'i sinib qoldi, tandirning og'zi yopib qo'yildi kabi gaplardan ko'p ma'noli so'zlarni topib, tagiga chizish orqali o'quvchilar darsni mustahkam olishadi. Yuqorida sanagan mavzular orqali 2-sinf ona tili darsida o'quvchilar lingvistik kompetensiya ichiga kiruvchi mavzular bilan tanishib borishadi. Boshlang'ich sinflarda lingvistik kompetensiyani o'qitishda o'quvchilarning og'zaki nutqini o'stirish, lug'atini yangi so'zlar bilan boyitish, nutqida so'zlardan to'g'ri va unumli foydalanishga o'rgatish maqsad qilib olingan.

References:

1. Mirziyoyev sh. M. "erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz" Toshkent. "O'zbekiston" NMIU. 2017. 29-bet.
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni 2020.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-noyabrdagi "Zamonaviy maktablarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining F 22-son farmoyishi. T. 2022-yil 3-fevral
5. Ushenskiy K. D. "Tanlangan pedagogic asarlar"- Toshkent: "O'zdavnashr", 1959. 49-bet



6. S. D. Kuranov 2-sinf ona tili 1-2-qism. Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun darslik. Toshkent-2023 "Novda Edutainment"
7. <http://www.pedagog.uz>
8. <http://www.ziyonet.uz>